

Boysunda 10 mln dollarlik sement ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda



Boysun tumani “Sayrob” mahallasi hududidagi 8,7 gektar maydonda “PRB Investment Co” MChJ tomonidan umumiy qiymati 10 mln dollar bo’lgan, to’liq to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiya hisobiga sement ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Yillik ishlab chiqarish quvvati 200 ming tonna, eksport hajmi 5,3 mln dollarni tashkil etuvchi loyiha 2 bosqichda amalga oshirilmoqda va to’liq quvvatda ishga tushirilgach 50 ta ish o’rni yaratiladi.

Viloyat rahbari mazkur loyihada olib borilayotgan ishlar bilan tanishib, mas’ullarning loyiha yuzasidan axborotlarini tingladi. Mavjud muammolarni bartaraf etish, loyihani muddatida ishga tushirish bo’yicha mas’ullarga vazifalar belgilab berildi.

Ma’lumot uchun, Boysun tumanida 2023 yil hududiy investitsiya dasturi asosida, umumiy qiymati 173 mlrd 381 mln so’mlik 39 ta loyihani amalga oshirish, 497 ta yangi ish o’rinlari yaratish rejalashtirilgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)